

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>

LINGUOCULTURAL FEATURES OF EDUCATIONAL AND MORAL PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE UZBEK LANGUAGE

Muhammadiqbol Boborajabov*Oriental University Teacher*mboborajabov62@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: phraseological unit, linguoculture, national mentality, folk pedagogy, education and upbringing, cultural code, Uzbek language, educational values.

Received: 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25

Abstract: This article analyzes educational and moral phraseological units in the Uzbek language from a linguocultural perspective. It reveals the role of phraseological units in expressing the Uzbek people's national mentality, spiritual values, educational traditions, and social experience. In the course of the study, national and cultural components found within the structure of phraseological units (such as names of clothing, objects, place names, agrarian and social symbols) are identified, and their educational significance is explained. In addition, phraseological units are evaluated as important linguocultural units that reflect folk pedagogy, national moral norms, and educational continuity between generations. The article substantiates the necessity of studying phraseological units in Uzbek linguistics not only as a linguistic phenomenon, but also as a cultural and pedagogical one.

O'ZBEK TILIDAGI TA'LIM-TARBIYAGA OID FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Muhammadiqbol Boborajabov*Oriental universiteti o'qituvchisi*mboborajabov62@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, lingvomadaniyat, milliy mentalitet, xalq tilidagi ta'lim-tarbiyaga oid frazeologik

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek

pedagogikasi, ta'lim-tarbiya, madaniy kod, o'zbek tili, tarbiyaviy qadriyatlar.

birliklar lingvomadaniy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Frazelogizmlarning o'zbek xalqining milliy mentaliteti, ma'naviy qadriyatlari, tarbiyaviy an'analari va ijtimoiy tajribasini ifodalashdagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida frazeologik birliklarning tarkibida uchraydigan milliy-madaniy komponentlar (kiyim-kechak nomlari, buyumlar, joy nomlari, agrar va ijtimoiy ramzlar) aniqlanib, ularning tarbiyaviy mazmuni izohlanadi. Shuningdek, frazeologizmlar xalq pedagogikasi, milliy axloqiy me'yorlar va avlodlar o'rtasidagi tarbiyaviy uzviylikni ifodalovchi muhim lingvokulturologik birlik sifatida baholanadi. Maqola o'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning nafaqat lingvistik, balki madaniy-pedagogik hodisa sifatida o'rganilishi zarurligini asoslaydi.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, СВЯЗАННЫХ С ОБРАЗОВАНИЕМ И ВОСПИТАНИЕМ, В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Мухаммадикбол Бобораджабов

Преподаватель университета Ориентал

mboborajabov62@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фразеологическая единица, лингвокультура, национальный менталитет, народная педагогика, образование и воспитание, культурный код, узбекский язык, воспитательные ценности.

Аннотация: В данной статье фразеологические единицы, связанные с образованием и воспитанием в узбекском языке, анализируются с лингвокультурологической точки зрения. Раскрывается роль фразеологизмов в выражении национального менталитета узбекского народа, его духовных ценностей, воспитательных традиций и социального опыта. В ходе исследования выявляются национально-культурные компоненты, входящие в состав фразеологических единиц (наименования одежды, предметов, топонимы, аграрные и социальные символы), и даётся их воспитательная интерпретация. Кроме того, фразеологические единицы рассматриваются как важные лингвокультурологические единицы, отражающие народную педагогику, национальные нравственные нормы и воспитательную преемственность между поколениями. В статье обосновывается

необходимость изучения фразеологических единиц в узбекском языкознании не только как лингвистического, но и как культурно-педагогического явления.

Kirish. Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik zamonaviy tilshunoslikda lingvomadaniy yondashuvning shakllanishiga olib keldi. Ushbu yondashuv til birliklarini xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy tajribasi va milliy dunyoqarashi bilan bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Ayniqsa, frazeologik birliklar xalq tafakkurining, mentalitetining va ma'naviy qadriyatlarining eng yorqin ifodasi sifatida e'tirof etiladi.

O'zbek tilidagi ta'lim-tarbiyaga oid frazeologizmlar xalqning ilmga, odobga, ustoz-shogirdlik munosabatlariga, ota-ona va jamiyat tarbiyasiga bo'lgan qarashlarini mujassamlashtiradi. Shu bois mazkur frazeologik birliklarni lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish o'zbek xalqining tarbiyaviy konsepsiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Asosiy qism. O'zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklar o'zbek xalqining milliy mentaliteti, madaniyati, urf-odat va an'analarini o'zida aks etuvchi eng asosiy til birligi hisoblanadi. O'zbek tili boy va sarmazmun frazeologizmlari bilan ajralib turadi. Xususan, ta'lim-tarbiya bilan bog'liq frazeologizmlar o'zbek xalqining ilmga, odobga, ustoz-shogirdlik an'analariga bo'lgan munosabatini chuqur ifodalaydi. Ular nafaqat tildagi obrazli vosita, balki jamiyatda shakllangan tarbiyaviy me'yorlarning lingvomadaniy ko'zgusidir. Ta'lim-tarbiyaga oid ayrim frazeologizmlarda o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy kiyimlar, narsa va buyumlar, iste'mol mahsulotlari, joy nomlari va hayvon nomlari ishtirok etadi. Masalan, dasturxon ko'rmagan, yelkasi chopon ko'rmagan, tandirdan chiqqan, lafzi halol, quloqqa azon aytmoq, belida belbog'i bor, ola xurjun yelkasiga tushmoq, chelda suv tashigan, yopinchiq ichida ulg'aymoq, rizqini terib yemoq, g'alla bosgan bola, qozonga qoshiq tiqmagan, eski to'nni yelkasiga tashlamoq; oshni bilmagan bola; ko'cha ko'rgan bola, qo'g'irchoqdek ulg'aygan, tasbehi qo'lidan tushmaydi, o'z aravasini o'zi tortmoq, maktab ko'rgan, alifni kaltak deyoymaslik, zuvalasi pishiq, qalami o'tkir, savodsiz chopon kiygan, supada o'qigan [1,407].

Yuqoridagi ushbu frazeologizmlar o'zbek xalqining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Mazkur frazemalarning barchasida o'zbek xalqi foydalanadigan kiyim-kechaklar, buyumlar, milliylikka xos mavhum tushunchalar, o'zbek xalqiga xos joy nomlari ishtirok etgan va bunda xalqning o'ziga xos fikrlash tarzi, urf-odati, madaniyati aks etgan. Shuning uchun insonlarning tilidagi rang-barangliklar xalq madaniyatining, kechinmalarining turfa xilligini ko'rsatib beradi. Demak, frazeologizmlarning markazida turuvchi, ya'ni etalon sifatida olingan komponentlar o'zbek tilining lingvomadaniy xususiyatlarini ko'rsatuvchi birliklardan biri sanaladi.

Turli xalq frazeologik birliklari bir-biridan farq qilishi tabiiy holat. O'zbek tilidagi frazeologizmlar ham o'zidagi ayrim milliy-madaniy xususiyatlari bilan boshqa tillarnikidan farq qiladi. Arab tilidagi frazeologizmlarda uchragani kabi o'zbek tilidagi ayrim milliy-madaniy leksik birliklar ham frazeologizmlarga lingvomadaniy xususiyat bag'ishlaydi. Bunday so'zlar xalqning asrlar davomida shakllangan ijtimoiy hayoti, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, oilaviy va jamiyatdagi tarbiya an'analari, urf-odatlari asosida paydo bo'lgan va tarbiya jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan birliklardir. Masalan, beshik, to'y, duo, dasturxon, davra, do'ppi, qo'shnichilik, ota-onaga hurmat, ayolga izzat, mehmondo'stlik kabi leksik birliklar orqali shaxs tarbiyasi, axloqiy me'yorlar, odob-axloq saboqlari, hurmat va madaniyat ifodalanadi [2,130].

O'zbek xalqining ta'lim-tarbiyaga oid frazeologik birliklari xalqning ma'naviy qadriyatlari, tarbiyaviy an'analari va ijtimoiy tajribasining badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, beshik tebratmoq iborasi farzand tarbiyalash, hamda hayotiy tajribaga ega ona obrazini ifodalaydi. Beshik o'zbek xalqida nafaqat chaqaloq uyqusi yoki bolalik timsoli, balki ona mehr-muhabbatining, tarbiyaning dastlabki bosqichining ramzi sifatida qadrlanadi. Shu bois bu ibora ayolning biologik vazifasi bilan bir qatorda uning tarbiyaviy missiyasini ham ta'kidlaydi.

Duo olmoq iborasi esa ota-ona, ustoz yoki el-ulusning roziligini, ma'naviy qo'llovini olish ma'nosida qo'llanib, o'zbek xalqida tarbiyaning ruhiy-axloqiy tayanchi sifatida talqin qilinadi. Tarbiyalangan bola kattalarning duosiga sazovor bo'lishni eng oliy baxt deb biladi. Bu birlikda ruhiy-ma'naviy tarbiya va jamiyat tomonidan beriladigan ijtimoiy baho birlashgan.

El-yurt ko'rgan bola iborasi xalq orasida ulg'ayib, jamiyatning me'yor va qadriyatlari asosida shakllangan, odob-axloqni yaxshi biladigan insonni anglatadi. "El-yurt" tushunchasi jamiyatni, xalqning umumiy tarbiyaviy muhitini ifodalaydi. Shu bois bunday bola odatda tartibli, mas'uliyatli va jamoaga foydali shaxs sifatida tasvirlanadi.

Onasining to'nini kiygan iborasi esa qiz bolaning onasidek tarbiyali, izzatli va e'tiborli bo'lishini anglatadi. O'zbek xalqida kiyim-kechak, xususan, to'n, chopon, do'ppi kabi milliy kiyimlar faqat tashqi ko'rinish emas, balki avlodlar o'rtasidagi ma'naviy meros va tarbiya davomiyligining ramzi sifatida baholanadi. Shu jihatdan bu ibora qiz bola tarbiyasida onaning o'rni naqadar muhim ekanini ko'rsatadi.

Ustoz oldida bosh egmoq iborasi o'zbek xalqining asosiy ta'limiy qadriyatlaridan birini – ustozga cheksiz hurmatni ifodalaydi. Ustoz shaxsining jamiyatda ilohiy maqomga ko'tarilishi, uning so'zini hukm sifatida qabul qilish qadimdan o'zbek tarbiyaviy an'anasining muhim jihati bo'lib kelgan. Bu ibora orqali ilm va odobning ildizi ustoz sha'nini ulug'lash bilan bog'liq ekanligi ko'zga tashlanadi.

Madrassa tuprog'ini yalamoq iborasi ilm yo'lida fidoyilik ko'rsatgan, qiyinchiliklarga bardosh bergan, sabr-toqatli shaxsni ta'riflash uchun ishlatiladi. Madrasa o'zbek xalqining tarixiy

xotirasida diniy va dunyoviy bilimlar uyg'un holda berilgan ta'lim maskani sifatida muhim o'rin tutadi. Ushbu ibora ilm olishning mashaqqatli jarayon ekanini, shuningdek, ilm yo'lida qilinadigan fidoyilik va milliylikni o'zida mujassamlashtiradi [2,180].

Umuman olganda, bu frazeologizmlar orqali o'zbek xalqining tarbiyaviy qarashlari, ona mehrining beqiyosligi, duoning ma'naviy kuchi, jamiyat tarbiyasining ijtimoiy vazifasi, avlodlar o'rtasidagi tarbiyaviy meros, ustozni ulug'lash an'anasi va ilm yo'lidagi fidoyilik kabi qadriyatlar ifodalanganini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari o'zbek tilida yana bir qator ta'lim-tarbiyaga oid frazeologik birliklar borki, xalqning ijtimoiy-madaniy hayotini, qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalovchi muhim lingvomadaniy birliklar sirasiga kiradi va ularning arab tilida ham muqobil variantlari uchraydi. Ular nafaqat tilda, balki xalqning tarbiyaviy tajribasida, ijtimoiy munosabatlarida ham faol qo'llanib keladi. Jumladan, quloqqa quyilmoq iborasi og'zaki nasihat, pandu-o'gitning bola tarbiyasidagi o'rni naqadar muhimligini ko'rsatadi. O'zbek xalqi qadimdan farzand tarbiyasini, avvalo, so'z orqali amalga oshirib kelgan; ya'ni kattalar o'git berish, takror-takror eslatish orqali yoshlarga odob, halollik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni singdirgan. Shu ma'noda, ushbu ibora xalq tarbiyasining og'zaki shakli va og'zaki ijod madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Qon-qoniga singmoq frazeologizmi esa o'zbek xalqining tarbiya haqidagi qarashlarida yaxshi fazilatlar insonning xulqiga, fe'l-atvoriga chuqur singib, uning hayotiy amaliyotiga aylanishi lozim ekanligi kabi muhim tamoyilni ifodalaydi. Bu ibora milliy mentalitetda mavjud bo'lgan odob-axloq qondan qonga singadi degan tasavvur bilan uzviy bog'liqdir. Ya'ni tarbiya jarayoni nafaqat tashqi nazorat va eslatish, balki odob va qadriyatlarning shaxsning ichki dunyosiga, butun tabiatiga singib ketishi bilan samarali bo'ladi. Shu orqali xalq tarbiyaning avloddan-avlodga uzluksiz o'tishini, milliy axloqiy me'yorlarning mustahkamligini ta'kidlagan. Arab tilida bunga yaqin ifoda sifatida جَزَى مَجْرَى النَّم – qon oqimi kabi ichiga singib ketmoq iborasi ishlatiladi. Shu orqali xalq tarbiyaning avloddan-avlodga uzluksiz o'tishini, milliy axloqiy me'yorlarning mustahkamligini ta'kidlaydi.

Yaxshilik urug'ini sepmoq iborasi esa o'zbek xalqining dehqonchilik madaniyatidan kelib chiqqan bo'lib, tarbiyaning samaradorligi yerga ekilgan urug'ning mevasiga o'xshatiladi. Bu yerda tarbiya jarayoni inson hayotida uzoq muddatli, natijasi keyinchalik namoyon bo'ladigan jarayon sifatida tasvirlanadi. Xalqning asosiy hayot tarzi dehqonchilik bo'lganligi sababli, tarbiya va odob masalalarini ham aynan agrar ramzlar orqali ifodalash milliy tafakkurning o'ziga xos xususiyatidir. Bu ibora orqali xalq tarbiyani kelajakka yo'naltirilgan ezgu amaliyot sifatida tasvirlaydi: bola yoki shogirdga qilingan har bir yaxshilik va berilgan odob keyinchalik hosilini beradi. Arab tilida bunga muqobil tarzda زرع بخور الخير – yaxshilik urug'ini ekmoq iborasi qo'llanadi.

Tilini tiymoq iborasi o'zbek milliy odob-axloq tizimida so'zlash madaniyatining alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Xalq mentalitetida odamning ma'naviy saviyasi ko'pincha uning nutqidagi odob bilan o'lchanadi. Shu sababli kattalar bilan suhbatda o'zini bosib gapirish, keraksiz so'z aytmaslik, o'zini tiyish tarbiyaning muhim ko'rinishi hisoblangan. Bu ibora orqali o'zbek xalqining so'z odobi haqidagi qarashlari, ya'ni kattaga hurmat, kichikka izzat, mulohazakorlik kabi qadriyatlari aks etgan. Arab tilida mazkur mazmunga yaqin كَفَّ لِسَانَهُ – tilini tiyib turmoq iborasi qo'llaniladi.

Yuqoridagi frazeologizmlarning aksariyatida o'zbek millatining an'anaviy fikrlash tarzi, ijodiy tafakkuri, milliy mentalitetning o'ziga xosligi va subyektiv munosabati o'z ifodasini topgan. Binobarin, bu kabi frazeologizmlar milliy-madaniy belgilarni o'zida saqlovchi va ularning davomiyligini ta'minlovchi, tilning yaratuvchanlik imkoniyatini ko'rsatuvchi lingvomadaniy birliklar sifatida xalqlarning madaniyatini tushunish va chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

O'zbek tilidagi ta'lim-tarbiyaga oid frazeologizmlar xalqning ma'naviy hayotini, axloqiy qadriyatlarini, shaxs tarbiyasiga oid qarashlarini va ijtimoiy me'yorlarini o'zida mujassam etgan. Ularni ilmiy tahlil qilish orqali nafaqat lingvistik, balki madaniy va pedagogik xulosalarga kelish mumkin.

Avvalo, frazeologizmlar xalq pedagogikasining o'ziga xos badiiy shaklidir. Xalq pedagogikasi asrlar davomida ota-ona, ustoz va jamiyat tajribasi asosida shakllangan bo'lib, unda insonning ma'naviy kamoloti va axloqiy yetukligi asosiy maqsad hisoblangan. O'zbek tilida uchraydigan duo olmoq, ustoz oldida bosh egmoq, pand-nasihat qilmoq kabi frazeologik birliklar xalq pedagogikasining asosiy tamoyillarini ifodalaydi. Duo tushunchasi xalq ongida nafaqat diniy marosim, balki tarbiya va qo'llab-quvvatlashning ramzi sifatida shakllangan. Shuningdek, ustoz tushunchasi o'zbek xalqida doimo ilohiylashtirilgan darajada ulug'langan, bu esa ustozning oldida bosh egmoq iborasida badiiylashgan. Frazeologizmlar orqali xalq pedagogikasidagi asosiy g'oya hisoblanmish tarbiya jarayonining shaxs kamolotida hal qiluvchi rol o'ynashi til qatlamida mustahkamlanadi.

Frazeologizmlar milliy mentalitetning bevosita ko'rinishlaridan biridir. O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan dunyoqarashida odob, sabr-toqat, hurmat, ona mehri, el-yurt qadri kabi qadriyatlar asosiy o'rinda turadi. Bu qadriyatlar xalq tilida turli frazeologik birliklar vositasida saqlanib qolgan. Masalan, tilini tiymoq iborasi jamiyatda nutq odobi va muomala madaniyatining naqadar muhimligini anglatadi. Beshik tebratmoq iborasi esa milliy tafakkurda faqat biologik onalik emas, balki ona mehrining, tarbiyaning boshlang'ich bosqichining ramzi sifatida mustahkam o'rin egallagan. Shuningdek, ko'ngil ko'tarmoq, elning duosini olmoq kabi iboralar xalq mentalitetida jamiyat bilan uyg'unlikda yashash, ijtimoiy birlikni ta'minlash,

ma'naviy rishtalarni mustahkamlash tamoyillarini aks ettiradi. Demak, frazeologizmlar milliy mentalitetning til orqali ko'rinadigan eng aniq shaklidir.

Frazeologizmlar qadimiy dunyoqarash va mifologik tasavvurlarning ham izlarini saqlab qolgan. Masalan, yulduziga boqmoq iborasi qadimiy davrlarda inson taqdirining osmon jismlari bilan bog'langaniga ishonchni ifodalaydi. Ajdahoday bo'lmoq iborasi esa mifologik obraz asosida shakllangan bo'lib, tarbiyaviy nuqtayi nazardan qudratli, kuchli obrazni bildiradi. Beshikda ulg'aymoq kabi iboralar esa qadimiy urf-odatlarining, oilaviy qadriyatlarining tilimizdagi ifodasi sifatida saqlanib qolgan. Shu bois, frazeologizmlar nafaqat zamonaviy tarbiyaviy qarashlarni, balki qadimiy e'tiqod va an'analarni ham til qatlamida saqlovchi manba sifatida qadrlanadi.

O'zbek tilidagi frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu birliklar xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, ma'naviy qadriyatlari va tarbiyaviy qarashlarini o'zida mujassam etgan "madaniy kodlar" sifatida til qatlamida yashab keladi. Masalan, ko'ngil ko'tarmoq, ko'ngliga qaramoq, dilini og'ritmoq kabi iboralar o'zbek xalqining tarbiya jarayonida inson ruhiyati va ichki dunyosiga e'tibor berish an'anasini ochib beradi; elning duosini olmoq, xalqning nazaridan qolmoq, el-yurtga yaramoq frazeologizmlari jamiyat va jamoa fikri bilan uyg'un yashashni tarbiyaning muhim mezoni sifatida ko'rsatadi; yuragi keng, qo'li ochiq, mehmon kutmoq singari iboralar esa xalq mentalitetida tarbiyaning asosiy unsurlaridan biri sifatida saxovat va mehmondo'stlikni ifodalaydi. Shu bilan birga, yuragi tosh, ko'zi och, qulog'i og'ir, burni baland [1,30-110]. kabi frazeologik birliklar orqali axloqiy-psixologik sifatlar baholangan, ya'ni ular tarbiya jarayonida yomon xatti-harakatlardan ogohlantirish, ijobiy fazilatlarni targ'ib qilish vazifasini o'taydi. Frazeologizmlarda o'zbek xalqining tarixiy-maishiy turmushi ham aks etgan: masalan, supada ulg'aymoq, qozon yonida katta bo'lmoq, nonning tuzini totmoq kabi iboralar orqali xalqning oddiy turmush tarzi, mehnatsevarligi va oila markazidagi tarbiyaviy qadriyatlari ifodalangan. Bu kabi birliklarning lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlar nafaqat badiiy tasvir vositasi, balki xalq tafakkurining konseptual dunyosini ochuvchi, milliy mentalitetni va tarbiyaviy qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim lingvokulturologik hodisa sifatida xizmat qiladi.

Ta'kidlash joizki, o'zbek tilidagi ta'lim-tarbiyaga oid frazeologizmlar xalq pedagogikasining badiiy ifodasi, milliy mentalitetning ko'zgusi, konseptual dunyoqarashning lingvistik shakli, qadimiy tasavvurlarning tilimizdagi in'ikosidir. Ularni arab tili bilan qiyosiy tahlil qilish esa umumiylik va farqlarni ko'rsatib, xalqning madaniy tajribasi va tarbiyaviy qadriyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu bois, frazeologizmlar faqat til birliklari sifatida emas, balki xalqning ma'naviy xotirasi, milliy qadriyatlari va tarbiyaviy qarashlarini o'zida mujassam etgan lingvomadaniy hodisa sifatida o'rganilishi zarur.

Xulosa. O'zbek tilidagi ta'lim-tarbiyaga oid frazeologik birliklar xalqning milliy mentaliteti, ma'naviy qadriyatlari va tarbiyaviy an'analarini o'zida mujassam etgan muhim lingvomadaniy hodisadir. Ular xalq pedagogikasining badiiy ifodasi, tarixiy xotiraning til qatlamidagi aksidir.

Frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, bu birliklar orqali o'zbek xalqining tarbiya haqidagi qarashlari, ustozga hurmat, ona mehri, jamiyat bilan uyg'unlik va axloqiy me'yorlar avloddan-avlodga uzatiladi. Shu bois ta'lim-tarbiyaga oid frazeologizmlarni o'rganish tilshunoslik, lingvomadaniyat va qiyosiy tadqiqotlar uchun muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati-Toshkent: O'qituvchi, 1978.-B.407.
2. Berdiyev X., Rasulov R., Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasidan materiallar. I qism.-Samarqand, 1976.
3. Bayjigitov O. I. O'zbek muloqot nutqidagi frazeologik birliklar: kognitiv va lingvokulturologik tamoyillari. Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2023. – 51 b.
4. G'aniyeva Sh.A. O'zbek frazeologizmlari strukturasi. (Shakliy va mazmuniy modellashtirish). Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2017. – 46 b.
5. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 1985. – 520 b.
6. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 1992.